



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


QURILISH ISHLARI

2020-yil yanvar-fevral oylari

2020-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida jami 2 403,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,2 %ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida qurilish ishlari hajmi


(mlrd.so'm)



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 522,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 15,8 % ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,5 % punktga ko'paygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 63,6 % to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,8 %ni tashkil etgan holda 1 528,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaygan, 14,7 %ga o'sdi va 352,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 106,5 %ni tashkil etgani kuzatildi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **68,2 %** yoki **1638,9 mlrd.** so`mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan **469,0 mlrd.** so`mlik ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **89,7%ni** tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **936,2 mlrd. so`mlik** yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **61,2 % ni** yangi qurilish ishlari bo`yicha ishlar bajarildi.




Norasmiy sektor bo`yicha yangi qurilish hisobidan **233,7 mlrd. so`m** ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **66,3 % ni** tashkil etdi.



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




-  *Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar-joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 14,9 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamayib, 61,2 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 24,7 %ni tashkil qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 59,5 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 40,5 %ni (1,3 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi va 6,2 %ni tashkil etdi.

Qolgan 93,8 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)




Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 72,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,0 foizni tashkil qildi, yaʼni 2019-yil yanvar-fevral holatiga nisbatan 0,7 % punktga kamaygan.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 2 331,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,0 foizni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so`m)




○—○ o`shish sur`ati % da

Qurilish ishlarining tumanlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati Chilonzor tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish sur`ati 115,9 %ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari


(jamiga nisbatan %da)



● Yirik qurilish tashkilotlari ● Kichik korxonalar ● Norasmiy sektor

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Olmazor (tumandagi qurilish hajmining 43,3% ni tashkil etgan) va Chilonzor (mos ravishda, 39,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Bektemir tumanida 3,3 % kuzatildi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 85,2 %ni tashkil etdi.






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahrining qurilish ishlari bo'yicha yuqori o'sish sur'ati – 113,2 % ga ko'tarildi:

- “Yunusobod” va “Sergeli” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo'lida elektropoyezdlar uchun temir yo'l qurilishi;
- Ko'ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navro'z” istirohat bog'ining qurilishi;

- "Toshkent-Sharqiy" aerodromi bazasida fuqarolik aviatsiyasi zamonaviy aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **Sh.Samiyev**
Aloqa telefoni: **(0371) 230-88-18**